



## MADANIY MEROSIMIZ MAQOLLARDA

**N Tashpulatova**

*NavDPI, Ingliz tili va adabiyoti fakulteti, Fakultetlararo chet tillar kafedrası,*

**A.Yaxshilikova**

*Konimex tuman 9- maktab ingliz tili o'qituvchisi*

**Annotasiya** *Ushbu maqolda xalqimizning ma'naviy madaniy merosining o'rganilish tarixi haqida, hamda uning tarbiyada tutgan o'rnini haqida to'xtalib o'tilgan. Ajdodlarimizning o'z asarlarida maqollardan foydalanilishi, hatto chet el olimlarining o'zbek maqollarda qiziqishlari haqida to'xtalgan.*

**Kalit so'z:** *maqol, tarbiya, ma'naviyat, xalq, yoshlar, to'g'ri so'z, rostgo'y, mehnatsevar, mard, jasur, sabotli, matonat*

### KIRISH

O'zbek tili - boy imkoniyatlarga ega til. Tilimizning o'ziga xos xususiyatlari uning naqadar boy va qimmatli ekanligini belgilaydi. Tilimizning tasviriy ifodalarga boyligi, bo'yoqdorligi maqollarda ham namoyon bo'ladi. Dono xalqimiz milliy madaniyatini, mentalitetini, so'z boyligini maqollar orqali ham namoyon qiladi. Adabiyot beqiyos ma'naviy merosdir. Uni o'rganish, anglash, mag'zini chaqish, hayotiy xulosalar chiqarish, ayniqsa, yoshlar tarbiyasida katta ahamiyatga ega bo'lsa, uning tili, so'z boyligi, ma'no mazmuni, madaniyatimizda tutgan o'rnini anglash ma'naviy yuksalish uchun muhim omil sanaladi. Xalqimiz boy ma'naviy merosining ajralmas bir bo'lagi sifatida yashab kelayotgan maqol, matal va iboralarni o'rganish, ularda aks etgan xalq hayotini, insoniy tuyg'ular tasvirini ko'rsatish har doim dolzarblik kasb etib kelgan. O'zbek xalq maqollari, matallari va iboralarni o'rganish bugungi kunda nafaqat adabiyotshunoslik, tilshunoslikning ham oldida turgan muhim masalalardan biri hisoblanadi. Maqol va matallar, aforizmlar kishilarning, ayniqsa yoshlarning ongini o'stiradi, ularni to'g'ri so'z, rostgo'y, mehnatsevar, mard, jasur, sabotli va matonatli bo'lishiga o'rgatadi, kishidagi eng insoniy fazilatlarni targ'ib etadi. Shuningdek, yozuvchi, shoirlar va notiqning so'z boyliklarini orttiradi, ularning asarlarini badiiy jihatdan g'oyat ta'sirli qiladi. Biz og'zaki so'zlashuvimizda juda ko'p marotaba maqollarga murojaat etamiz. Maqol xalqimizning yillar davomida shakllangan og'zaki nutqining namunasi sanaladi. "Maqol" atamasi arabcha qavlun - gapirmoq, aytmoq so'zidan olingan. O'zbek xalq maqollari tilimizda qoliplashgan holda namoyon bo'ladi. Maqollardagi so'zlarni boshqasi bilan almashtirish, biror so'zni qo'shish mumkin emas. Maqollar xalqimizning milliy, madaniy-ma'naviy avloddan-avlodga o'tib kelayotgan merosi hisoblanadi. Bu meros madaniyatimizning ham namunasi sanaladi. Til va madaniyatning o'zaro yaqinligi va aloqadorligi ularni yagonametodologik asosda o'rganish imkonini beradi. Maqollarni lingvokulturologik nuqtayi nazaridan o'rganish bugungi kun tilshunosligi oldidagi muhim masalalardan biri hisoblanadi. Muammoning



o'rganilganlik darajasi. Maqolga adabiy til nuqtayi nazardan qiziqish, asar badiiyligini oshirish va badiiy til ravonligini ta'minlash uchun undan foydalanish hamma zamon so'z san'atkorlarining diqqatmarkazida bo'lgan. Yusuf Xos Hojib, Ahmad Yassaviy, Rabg'uziy, Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur, Abdulg'ozzi Bahodirxon, Munis, Ogahiy, Nodira, Muqimiy, Furqat, Avaz, Hamza, Sadridin Ayniy, Fitrat, Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Oybek, G.G'ulom va boshqa ko'plab ijodkorlarning asarlarisinchiklab o'rganilsa, ularning tarkibida qanchadan – qancha maqollar borligini ko'ramiz. Folklorshunos va etnograf Mahmud Koshg'ariyning "Devoni lug'atit turk" asarida turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan 275 ga yaqin maqol va matallar keltirilgan. Bu o'rinda adabiyotimiz tarixida maqollar asosida yaratilgan asarlar ham mavjudligini alohida ta'kidlab o'tish zarur. Masalan, Muhammad Sharif Gulxaniyning "Zarbulmasal" asari tarkibida 300dan ortiq maqol bor, yoki Sulaymonqul Rojiy o'zining "Zarbulmasal" asarida 400 dan ortiq maqolnishe'riy vaznga solganligi ham e'tiborga loyiq hodisadir. O'zbek xalq maqollariga muayyan bir tartib berib, majmua va xrestomatiyalarga kiritish, ulardan maxsus to'plamlar tuzish ishlari esa XIX asrning ikkinchi yarmidanboshlandi. Masalan, H.Vamberining 1867-yilda Leypsigda nashr etilgan "Chig'atoy tili darsligi" xrestomatiya – lug'atiga o'zbek folklori va adabiyotining ayrim namunalari qatori 112 ta maqol kiritilgan bo'lib, ularning nemis tilidagi tarjimasi ham berilgan.

Arminiy Vamberi yoki German / Herman Vamberi (vengercha Ármin Vámbéry, nemischa Hermann Bamberger; 19-mart 1832, Nidermarkt — 15-sentyabr 1913, Budapesht) — sharqshunos, tilshunos olim, sayyoh va yozuvchi.

Vengriya Fanlar akademiyasi a'zosi (1861). Vengriya fanlar akademiyasi muxbir a'zosi (1861). Peshtda xonadon o'qituvchisi bo'lgan (1852—56). Turkiya (Istanbul)da yashagan (1857—60). Vengriya fanlar akademiyasi homiyligida Eron va Turkis-tonga sayohat (1863-yildan) qilgan. V. darvesh (qalanlar) niqobi ostida Makkadan haj safaridan qaytayotgan mahalliy aholi guruhiga qo'shilib Mozandarondan Bolxon ko'rfaziga keladi, so'ng Turkmaniston orqali Xiva va Qo'ng'irotda o'tadi. Qizilqumdan o'tib Buxoro, Samarqand, Karki va b. shaharlarda bo'ladi. Orqaga Hirot, Mashhad, Tehron va Istanbul bo'ylab qaytadi. V. tilshunoslik, adabiyotshunoslik, folklor, etn., tarix va geogr.ga oid asarlar muallifi („Nemischa-turkcha lug'at“, 1858; „Nemischa-chig'atoycha lug'at“, 1860; „Movarounnahr yoki Buxoro tarixi“, „Mening hayotim“, „Sharq hayoti va urf-odatlarini ocherklari“ va b.). „Chig'atoy tili darsligi“ (1867) asarida V. turkiy xalqlar folkloriga oid 30 dan ortiq asar haqida ma'lumot bergan, ulardan parchalar keltirgan, shuningdek Navoiy, Fuzuliy, Nasimiy, So'fi Olloyor g'azallaridan olingan namunalarni va 112 ta o'zbek maqolini arab va lotin yozuvida keltirib, nemischa tarjimada bergan. Turkiy va nemis tillarini qiyosiy o'rgangan.

Shunday ekan xalqimizda qoladigan merosning qanchalik yuksakligi, tarbiyaviy ahamiyatini buyukligi butun dunyoni azal azaldan qiziqtirib kelmoqda. Demak Bugungi Yangi O'zbekiston farzandlarini milliy merosimiz maqollar bilan tarbiyalashimiz maqsadga muvofiqdir. Maqollarni o'rganish va o'rgatish yoshlarimiz ma'naviyatida o'z millatiga nisbatan hurmatini, qalbida faxr tushunchasini olib kiradi.



Bola tarbiyasi uchun ota-ona qanchalar muhim o'rin tutsa uning o'qituvchisi hamda tarbiyachising ham o'rni huddi shunday muhim bo'ladi. Xalq ta'limi vazirligining 2004-yil 26-fevraldagi 26-sonli hay'at majlisi qarori bilan „oila, mahalla, maktab“ konsepsiyasi qabul qilindi. Bu konsepsiyada belgilab berilgan vazifalarni hal qilish uchun: Vazirlikning tashabbusi bilan Respublikamizdagi har bir davlat va nodavlat tashkilotlari bilan hamkorlikda „jamoatchilik maslahat kengashi“ tuzilib, joylarda tarbiyasi og'ir, xulqi buzqlikka moyil hamda daydib yurgan bolalar bilan ishlash, ularning ta'lim-tarbiyasiga va „Oila, mahalla, maktab“ konsepsiyasini amalda joriy etishga e'tibor qaratildi. Maktabni oila bilan bog'lovchi vosita bu o'qituvchidir. O'qituvchi o'quvchilar bilan birgalikda jonli muloqot qilib, ijobiy muhitni yaratishi kerak bo'ladi. Bu o'z navbatida o'qituvchining kommunikativ qobiliyatiga kiradi. Bundan ko'rinib turibdiki, o'qituvchining o'quvchilar bilan o'zaro yaqin munosabatidan asosiy maqsad:

- salbiy holatlarni vujudga keltiruvchi barcha jarayonlarga barham berish;
- o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarni hosil qilish; o'quvchilarni faollikka, erkin fikrlashga, o'z fikr-mulohazalarini cho'chimasdan bayon qilib unga tayanishga o'rgatish; - o'quvchilarning yashirin qobiliyatlarini rivojlantirish; - dars va darsdan tashqari jarayonlarda quvonch va shodlik kayfiyatini paydo qilish bo'lib hisoblanadi

Shunday, buyuk xalqimizning buyuk merosi maqollardan bolalar tarbiyasida foydalanish, uni avloddan-avlodga bekamu ko'st yetkazish bugungi o'qituvchilarimizning bosh maqsadiga aylanishi zarurdir.

### ADABIYOTLAR

1. Koshg'ariy M. „Devonu lug'atit turk“ I tom. -Toshkent.: 1960. 2. Mirzayev T. „O'zbek xalq maqollari“. -Toshkent: 2003. 3 O'zbek xalq maqollari. -Toshkent: G'. G'ulom nomidagi nashriyotmatbaa ijodiy uyi, 2009. 4. O'zbek xalq maqollari. -Toskent: Sharq 2012 5 Ўзбек халқ мақоллари. -Тошкент: F.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. 6.Ўзбек халқ мақоллари. II томли. -Тошкент: Ўзбекистон фан нашриёти, 1988 7 Shomaqsudov Sh., Shoraxmedov Sh. Ma'nolar maxzani. -T.: 2001